

XX ASRDA O'ZBEKISTON MATBUOTI: BOSMA NASHRLAR TASNIFI

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda matbuotning paydo bo'lishi, sabablari, ehtiyojlari, tarixiy shakllanishi, jamiyat hayotidagi o'rni, uning rivojlanish bosqichlari to'g'risida fikr yuritilgan. Matbuot chor mustamlaka va Sovetlar davrida tuzumning siyosiy targ'ibot quroliga aylantirilganligi asoslangan.

Kalit so'zlar: yozuv, davriy matbuot, piktogramma, ideogramma (logogramma), xabarnavis, bitikchi, darakchi, muarrix, voqeanavis, axbor, gazeta, jurnal, bosma nashr, syenzura.

ПЕЧАТЬ УЗБЕКИСТАНА В XX ВЕКЕ: КЛАССИФИКАЦИЯ ПЕЧАТНЫХ ИЗДАНИЙ

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы возникновения печати в Узбекистане, причины и потребности её появления, историческое формирование, а также роль и значение в общественной жизни. Обосновано, что в период царской колонизации и советской власти печать была превращена в инструмент политической пропаганды существующего режима.

Ключевые слова: письменность, периодическая печать, пиктограмма, идеограмма (логограмма), летописец, писец, хронист, историк, информатор, газета, журнал, печатное издание, цензура.

UZBEK PRESS IN THE 20TH CENTURY: CLASSIFICATION OF PRINTED PUBLICATIONS

Annotation. This article discusses the emergence of the press in Uzbekistan, the reasons and needs for its appearance, its historical development, and its role in social life. It is substantiated that during the Tsarist colonial and Soviet periods, the press was transformed into a tool of political propaganda for the ruling regime.

Keywords: writing, periodical press, pictogram, ideogram (logogram), chronicler, scribe, historian, reporter, news writer, newspaper, journal, printed publication, censorship.

O'zbekiston tarixini chuqur va ilmiy tahlil etishda davriy matbuotning alohida o'rni bor. Har bir tarixiy davr zamondoshlar tomonidan o'rganilgan va matbuot sahifalarida bo'lib o'tgan voqeahodisalar muhrlangan. Davriy matbuot sahifalaridagi ma'lumotlar qanday siyosiy nuqtai-nazardan yoritilishidan qat'iy nazar ularni tanqidiy o'rganib ilmiy qamrovga olish tarixning o'qilmagan sahifalarini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan sovet davri tarixi biz yuqorida ta'kidlagan holatga taalluqlidir.

Jamiyatni isloh qilishda matbuotning vazifalari [Trufanov, 1972. S.42; Xmara, 1974. S.188; Afanasyev, 1981. S.383; Proxorov, 1980. S.50] nihoyatda muhimligini anglagan jadid namoyondalari unga alohida e'tibor qaratadi. Gazeta, jurnal tipidagi bosma nashrlar Turkistonda XIX asrning ikkinchi yarmida paydo bo'lgan bo'lsa-da, milliy matbuot tarixi 1906-yil 27-iyunda boshlangan. [Do'stmuhammad, 2007. B.103; Boboxonov, 2002.]

Xalq ommasi va hatto ziyoli jamoatchilik orasida ham etarli darajada ommalashmagan [Do'stmuhammad, 2007. B.102] "Turkestanskiye vedomosti" va "Turkiston viloyatining gazetisi" Turkistondagi ilk matbuot nashrlari ekanligini N.Abduazizovanning tadqiqotlarida o'qishimiz mumkin. [Abduazizova, 2000. B.6.] Shundan so'ng, bir qator matbuot nashrlari chiqarilgan.

Turkistonda jurnallar nashriga bag'ishlangan tadqiqotlarga ko'ra [Abduazizova, 1997. B.252] 1917-yil oktyabr inqilobigacha bo'lgan davrda Turkistonda birinchi jurnal "Sredne-Aziatskiy Vestnik" (1896 yil mart), XX asr boshlarida "Turkestanskoye selskoye xozyaystvo" (1906-1918 yy.), "Za narod" (1907 y.), "Turkestanskiy skorpion" (1907-1910 yy.), "Srednyaya Aziya" (1910-1911 yy.), "Turkestanskiy kara-kurt" (1911), "Oyina" (1913-1915 yy.), "Al-Isloh" (1915-1918 yy.), "Al-Izoh" (1917-1918 yillar, ishchilarning manfaatiga javob bermagaligi uchun Turkiston Sovet Respublikasi XKSning 243-sonli qarori bilan tugatiladi) [Sayfullaev, 2019. P.59] jurnallari, "Stepnyye miraji" (1914 yil) almanaxi hamda boshqalar nashr qilingan va ular asosan rasmiy doiralar, mahalliy burjuaziya manfaati uchun xizmat qilgan.

Bu davrda Turkistonda norasmiy davriy nashrlar ham faoliyat yuritgan. [Shadmanova, 2011. B.5; Dobrosmyslov, 1910. S.145-152] Ziyoy Said (Soli Qosimov)ning asari bu vaqt davomida nashr etilgan davriy matbuotning o'ziga xos bibliografiyasi hisoblansa [Rahmonov, 2009. B.5; Ziyoy Said, 1927], M.P.Avsharovning bibliografik ko'rsatkichida rus tilida Turkistonda nashr qilingan hamda davriy matbuot tarixiga tegishli boshqa manbalarda uchramaydigan ma'lumotlari keltirilgan [Shadmanova, 2011. B.12; Avsharova, 1960. S.198].

Turkistonda 1917-yilga qadar 10 ta jurnal nashr etilganligi qayd etilsa [Aduazizova, 2002. B.11], Avloniy 1905-1917 yillarda 22 ta gazeta va 8 ta jurnalning nashr etilganiga guvohlik beradi. Ularning aksariyati Turkistonning boshiga kelgan balolardan qutilish yolg'iz maorif orqasidagina bo'lishiga [Mahmud, 1924] ishongan jadid taraqqiyparvarlari tomonidan chiqarilgan. Bu vaqtli nashrlar podshoh Rossiyasi manfaatlariga xizmat qilmaganligi, aksincha, o'zbek xalqi milliy ongi, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy darajasining oshishi yo'lida faoliyat olib borganligi uchun uzoq vaqt yashamay, aksar hollarda ...syenzurasining siquvi, ayrim hollarda esa iqtisodiy qiyinchilikka duch kelganligi orqasida uzoq yashamagan [Hasanov, 2015. B.3].

1917-yil fevraldan oktyabrgacha bo'lgan davrda Turkistonda Najot, Sho'roi Islom, Turon, Turk eli, Ulug' Turkiston, El bayrog'i, Ravnaq ul-islom, Ozod gazetalari, Al-isloh, Izhor ul-haq, Bayon ul-haq, Yurt, Kengash, Ishchilar dunyosi, Chayon nomli jurnallar nashr etilgan [Aduazizova, 2012. S. 198-202]. Mazkur gazeta va jurnallarda jadidlar ilgari surgan g'oyalar asosida yozilgan xabarlar ko'proq e'lon qilingan.

1917-yildan keyin O'zbekistonda siyosiy yo'nalishdagi partiyasovet matbuotining ko'p tarmoqli tizimi qaror topdi. Mazkur matbuotning shakllanishi va rivojlanish jarayoni kommunistik partiyaning mutlaq nazorati ostida olib borildi. Matbuotning shakli, yo'nalishi hukmron partiya "rahnamo"larining ko'rsatmalari asosida belgilandi. Sovetlar davrida matbuot faoliyatini tartibga soluvchi qonun bo'lmagan, balki matbuotning shakli, yo'nalishi hukumat qarorlari, hukmron partiya "rahnamo"larining ko'rsatmalari asosida belgilandi [Bahriyev, 2000. B.5].

Rus tilida nashr etilgan Znanya svobody, Kokandskaya pravda, IIIit naroda gazetalari, 1918 yildan boshlab milliy tilda chiqa boshlagan Ishtirokiyun, Mehnatkashlar tovushi, Farg'ona ishchi-dehqon va qizil askar vakillari sho'rosining axboroti, Ishchilar qalqoni, Xalq gazetasi, Yangi sharq, Tong, Erkinlik, Inqilob quyoshi, Buxoro xabari, Qutulish boshqa gazetalar tuzum g'oyalarini targ'ib qiluvchi maqolalar nashr etilgan bo'lsa, [Ernazarov, 1962, B. 15-16] "Qizil bayroq" singari gazetalar esa istiqlolchilik harakatiga ob'yektiv baho bermay, aksincha, barcha ijtimoiy muammolarga istiqlolchilarni aybdor, deb hisoblaydigan [Khamaev, 2018. P.48] maqolalar nashr etib bordi.

Sovet davrida matbuot tarixiga bag'ishlangan bir qator tadqiqotlar olib borilgan [Ernazarov, 1962. B. 221; Rassvet narodnoy pechati v Uzbekistane. 1983; Shog'ulomov, Pidayev, 1965. B. 86; Yusupov, 1974. S. 85; Ernazarov, Akbarov, 1976. S. 288; Ernazarov, Akbarov, 1977. S. 310; Yusupov, 1977; Boboxonov, 1979. B. 149; Axmedova, 1983; Atamirzayev, 1983. S.184; Mamatova, 1994]. Bu tadqiqotlarda sovet matbuotining jamiyatdagi o'rni bo'rttirib ko'rsatilgan va uning roliga alohida e'tibor qaratilgan.

O'zbek va boshqa tillarda chiqarilgan bu matbuot nashrlari Kommunistik partiyaning organi bo'lgan "Pravda"ning uslubidan to'liq foydalanib [Ernazarov, 1962. B.132] partiya qarorlari, chaqiriqlarini nashr etib bordi va tuzum targ'ibot-tashviqot ishlariga katta e'tibor qaratdi.

O'zbekiston SSR tashkil etilganidan keyin, 30-yillarga kelib matbuot to'la-to'kis stalinizm jarchisiga aylandi. O'zbekistonda 1925 yilda 26 ta, [Ernazarov, 1962. B.22] 1926 yili 26 ta, [Aduazizova, 2002. B.36-37] 1927 yilda 27 ta, 1928 yilda 25 ta [Ernazarov, 1962. B.22] gazeta, 24 ta jurnal, [Abdullayeva, 2010. B.17] 1933 yili 54 tagacha jurnal va jurnal tipidagi davriy nashrlar chop etilgan bo'lsa, 1937 yilga kelib ularning soni 57 taga etdi. [Aduazizova, 2002. B. 36-37] Barcha masalalar bo'yicha bu nashrlar faqat partiya rahbariyatining rasmiy yo'l-yo'riqlari va nuqtai nazarini ifodaladi, shu yillarda butun mamlakatda amalga oshirilgan yalpi qatag'on uchun mafkuraviy zamin ham yaratdi.

1941-1945-yillardagi urush davrida matbuot tarmog'i ham qisqardi, qator gazetalar faoliyati vaqtincha to'xtatildi. Gazetalarning hajmi va nusxasi kamaydi. 1941 yilda O'zbekiston SSRda 183 nomda gazeta, 47 nomda (1940 yillarga kelib 57 nomda) [Abdullayeva, 2010. B.20] jurnal va byulletenlar nashr etildi. [Ernazarov, 1962. B.212] Bu davr matbuotida mudofaa masalalari, Vatanni himoya qilish, uning oldidagi burchlarni halol bajarish, xalqni tinchlik, dushmanlarga nafrat ruhida tarbiyalovchi maqolalar doimiy ravishda bosilib turdi.

1946-1990-yillar oralig'ida matbuot nashrlari son jihatidan yanada kengaydi va barcha kishilarni g'oyaviy-siyosiy jihatdan «tarbiyalash»ga katta e'tibor berdi. Matbuot partiya manfaatlariga to'la bo'ysundirilganligi va nazorati yanada kuchayganligini B.Yusupovning [Yusupov, 1977] tadqiqotlaridan ham kuzatishimiz mumkin. KPSS MKning qarorida matbuotning roli oshirilishi hamda gazeta va jurnallarni g'oyaviy saviyasini oshirish, kommunistik qurilishning eng zarur vazifalarini hal qilishda ulardan foydalanish vazifalari belgilandi. [Qizil O'zbekiston, 1960. 9]

80-yillarning 2-yarmiga kelib «qayta qurish» deb nom olgan davr matbuotida so'z erkinligi va oshkoralik e'qinlari kuzatila boshladi. X.Do'stmuhammadga ko'ra, tanqidiy ruh avj oldi. Xolislik va noxolislik, xalq manfaati bilan muayyan guruhlar manfaati tushunchasi aralashib ketdi. Jamiyatda ham, matbuotda ham yo'lsizlik, parokandalik hukm surdi. [Do'stmuhammad, 2007. B. 126-127]

Sobiq sovetlar hokimiyatining zaiflashuvi, iqtisodiyotning izdan chiqishi, jamiyatda yuzaga kelgan turfa xil muammolar kishilarni hayotga haqqoniy ko'z bilan qarashga undamoqda edi. Davriy matbuot garchi kommunistik partiya nazorati ostida faoliyat yuritgan bo'lsa-da, milliy o'z-o'zini anglash g'oyalari bilan sug'orilgan, davr muammolarini ochib beruvchi maqolalar ham chop etila boshladi. Garchi darz ketgan hukmron partiya matbuotdagi bu kabi o'zgarishlarga nisbatan o'zining tazyiqini turli vositalarda namoyon etishga harakat qilgan bo'lsa-da, etilib kelgan kuchni to'xtata olmadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, 1917-yilgacha milliy ziyolilar – jadidlar tomonidan o'zlikni anglash, maorifni yuksaltirish, mustaqillikni qo'lga kiritish masalalari matbuot kun tartibida bo'lgan bo'lsa, oktyabr inqilobidan so'ng bu soha partiya tashkilotlari qo'lida uning qarorlarini keng xalq omasiga etkazish, ularni partiyaning bosh yo'lini amalga oshirish uchun kurashga safarbar qilishdan iborat totalitar tuzum maqsadlariga xizmat qilib, kompartiya xohish-irodasini ifoda etdi. Bu davrda matbuot partiya manfaatlariga to'la bo'ysundirilganligi, sohaning demokratik huquqiy asoslari yaratilmaganligi, matbuot erkinlashmaganligi, o'zini-o'zi boshqarish tizimi joriy etilmaganligi, sog'lom raqobat muhitining mavjud bo'lmaganligi, syenzura ostida tutib turilganligi sababli tub islohotlarga muhtoj edi. Ushbu muammolar natijasida matbuot tuzum maqsadlarini amalga oshiruvchi kuchli g'oyaviy va tashkiliy qurolga aylandi. Ularning sahifalarida xalq tarixini soxtalashtiruvchi, milliy qadriyatlarni erga uruvchi, mamlakatdagi yakka hokimlik siyosatini keng qo'llab-quvvatlovchi, dahriylikni targ'ib etuvchi maqolalar ko'plab bosildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduazizova N. "Turkiston matbuoti" (1870-1917). – T.: Akademiya. 2000. B. 6.
2. Abduazizova N. A. O'zbekistonda ijtimoiy-siyosiy, adabiy-badiiy jurnallar va ularning tarixiy-tadrijiy tasnifi masalalari (XIX asr oxiri XX asr). t.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozgan

diss. - T.: 1997. B. 252.

3. Abduazizova N. Milliy jurnalistika tarixi. 1. – T.: “Sharq” NMAK. 2008. B. 384.
4. Abdullayev I. Abu Mansur As-Saolibiy. – T.: “O‘zbekiston”. 1992. B. 29-30.
5. Abdullayeva N.B. Zamonaviy o‘zbek matbuoti dizaynining estetik xususiyatlari (jurnallar misolida). fals. f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozgan diss. T.: 2010. B. 17.
6. Avsharova M.P. Russkaya periodicheskaya pechat v Turkestane (1870-1917 gg.). Bibliograficheskiy ukazatel literatury. – T.: Gos. Izd-vo UzSSR, 1960. – 198 s.
7. Aduazizova N. Istoriya nasionalnoy jurnalistiki. I tom. – T.: GRIPAK SHARQ. 2012. S. 198-202.
8. Aduazizova N. O‘zbekiston jurnalistikasi tarixi. – T.: “Akademiya”. 2002. B. 11.
9. Azimov A.X. Istoriya stanovleniya tadzhikskoy pechati dvadsatyx godov (na primere gazety “Ovozi tochik” i eyo prilozheniy). Avtoref. diss... na soiskanii uchen. step. kand. ist. nauk. – Dushanbe. 1994. S. 8-10.
10. Atamirzayev K. Povysheniye roli pechati v kommunisticheskom vospitanii trudyayixsya. – T.: Uzbekistan. 1983. S. 184.
11. Afanasyev V.G. Obshchestvo: sistemnost, poznaniye i upravleniye. – M.: Politizdat. 1981. S.383.
12. Axmedova N.A. Rol mestnoy pechati Uzbekistana v pod’yema trudovoy aktivnosti trudyashixsya ryepubliki v period Velikiy Otechestvennoy voyny. Diss. kand. ist. nauk. – T.: 1983.
13. Bahriyev K. Jurnalistning huquqlari, majburiyatlari va mas’uliyatlari. – T.: «Fan». 2000. B. 5.
14. Boboxonov A. Istiqlol orzusi. Fidokor. – 2002, 25 iyul.
15. Dobrosmyslov A. Tashkentskaya pressa // Srednyaya Aziya. Yejemesyachnoye literaturno-istoricheskoye izdaniye. Kn. III. – T.: Tipogr. Turkest. T-va Pech. Dela. 1910. – 145-152 s.